

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№4

2025
APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
124 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatiliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	

O'ZBEKISTONDA AHOLI JON BOSHIGA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALARNING O'ZGARISH DINAMIKASI

Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi tahlil qilingan. Unda ushbu ko'rsatkichning iqtisodiy o'sishdagi roli, yillik o'zgarish tendensiyalari va asosiy omillari chuqur yoritilgan. Shuningdek, investitsiyalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, mintaqalar o'rtasidagi tafovutlar va ularni bartaraf etish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada aholi jon boshiga investitsiyalar hajmini oshirish orqali barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: asosiy kapital, investitsiya, iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish samaradorligi, bandlik, innovatsiya, davlat siyosati.

Abstract: This article analyzes the dynamics of per capita investment in fixed capital in Uzbekistan. It explores the role of this indicator in economic growth, its annual trends, and the key driving factors behind its changes. The article also discusses regional disparities in investment distribution and highlights potential strategies to address these imbalances. Emphasis is placed on the importance of increasing per capita investments as a crucial condition for achieving sustainable and inclusive economic development in Uzbekistan.

Keywords: fixed capital, investment, economic growth, production efficiency, employment, innovation, government policy.

Аннотация: В данной статье проанализирована динамика изменений инвестиций в основной капитал на душу населения в Узбекистане. Особое внимание уделено роли данного показателя в обеспечении экономического роста, тенденциям его ежегодных изменений и основным факторам, влияющим на его формирование. Также рассматривается распределение инвестиций по регионам, межрегиональные различия и перспективные направления по их сокращению. В статье обоснована необходимость увеличения объема инвестиций на душу населения как одного из ключевых условий обеспечения устойчивого и инклюзивного экономического роста.

Ключевые слова: основной капитал, инвестиции, экономический рост, производственная эффективность, занятость, инновации, государственная политика.

KIRISH

Asosiy kapital – bu iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini belgilovchi muhim omil bo'lib, uzoq muddat foydalaniladigan moddiy aktivlarni (inshootlar, mashina va uskunalar, transport vositalari, texnologik qurilmalar) o'z ichiga oladi. Asosiy kapitalga investitsiyalar – bu aktivlarni yangilash, modernizatsiya qilish yoki yangidan qurishga yo'naltirilgan mablag'lar yig'indisidir. Ushbu investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali korxonalar faoliyatini jadallashtiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va milliy mahsulot hajmini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, asosiy kapitalning yangilanishi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun zamin yaratib, iqtisodiyotning texnologik rivojlanish darajasini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtiradi.



Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'pincha iqtisodiy tizimda zanjirli yoki multiplikativ ta'sirlar keltirib chiqaradi. Masalan, transport infratuzilmasi yoki sanoat korxonalari qurilishi bilan bog'liq investitsiyalar nafaqat mazkur obyektlarda ish o'rinlari yaratadi, balki qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi, logistika va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini ham faoliyatga jalb etadi. Bu esa bandlik darajasining oshishiga, ish haqlari va aholining iste'mol salohiyatining kuchayishiga olib keladi. Aholi daromadining ortishi esa ichki bozorni jonlantirib, korxonalarning ishlab chiqarish hajmini kengaytirishiga turtki bo'ladi. Shu tarzda investitsiyalar real sektor orqali iqtisodiy o'sishning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi.

Asosiy kapitalga kiritilgan sarmoya ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish imkonini yaratadi. Yangi texnika va uskunalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, resurslardan foydalanish darajasini yuqori pog'onaga olib chiqadi. Bu esa tannarxning pasayishiga, mahsulot sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli texnologiyalarni qo'llash inson omiliga bo'lgan ehtiyojni optimallashtirib, inson kapitalining yanada samarali yo'naltirilishini ta'minlaydi. Innovatsion rivojlanish global raqobat sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ekologik toza va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish barqaror rivojlanish tamoyillariga mos ravishda uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlarni kafolatlaydi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri, avvalo, ularning samaradorligi va maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi. Investitsiya muhitining jozibadorligi, moliyaviy resurslarga erkin kirish imkoniyati, soliq va huquqiy imtiyozlarning mavjudligi, byurokratik to'siqlarning kamaytirilganligi – bular investorlar faolligini shakllantiruvchi asosiy omillardir. Davlat tomonidan xususiy sektorni qo'llab-quvvatlovchi siyosat, jumladan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining rivojlanishi, kredit kafolatlari, grant va subsidiyalar tizimi investitsiya oqimini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, har bir investitsiya loyihasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash, natijalar monitoringi va tahlili asosida strategik rejalashtirish olib borilishi lozim. Faqat mana shunday tizimli va uzoq muddatli yondashuv asosida investitsiyalar iqtisodiy o'sishning barqaror va inklyuziv bo'lishini ta'minlay oladi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar miqdori iqtisodiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu ko'rsatkich mamlakatda yashayotgan har bir fuqaro hissasiga to'g'ri keladigan investitsiya hajmini ifodalaydi. O'zbekistonda so'nggi yillarda ushbu ko'rsatkichda ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu holat, bir tomondan, aholi sonining barqaror o'sishi bilan, ikkinchi tomondan, investitsiyalar hajmining muntazam ortib borayotganini anglatadi. Ayniqsa, yirik sanoat korxonalari, infratuzilmaviy loyihalar, energetika va transport sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar bu ko'rsatkichning o'sishiga muhim hissa qo'shmoqda. Ushbu investitsiyalar har bir fuqaroning hayot sifati va farovonligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017–2023-yillar oralig'ida O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi yil sayin oshib bormoqda. Bu davrda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va infratuzilmani rivojlantirish ustuvor yo'nalish bo'lib qoldi. Davlat tomonidan olib borilgan investitsion siyosat, jumladan, erkin iqtisodiy zonalar va maxsus industrial hududlarning tashkil etilishi, xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar bu jarayonda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar – Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki kabi tashkilotlarning yirik loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtiroki aholi jon boshiga investitsiyalar ko'rsatkichining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston hududlari kesimida aholi jon boshiga investitsiyalarning taqsimoti notekis bo'lib, bu holat hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni aks ettiradi. Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Buxoro kabi sanoatlashgan mintaqalarda aholi jon boshiga investitsiyalar nisbatan yuqori bo'lsa, chekka va iqtisodiyoti sust rivojlangan hududlarda bu ko'rsatkich past darajada qolmoqda. Bu esa hududlararo iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish maqsadida mintaqaviy investitsiya strategiyalarini kuchaytirishni taqozo etadi. Kelgusida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun nafaqat umumiy hajm, balki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalarning hududiy muvozanati, inson kapitali, yashil iqtisodiyot va innovatsion yo'nalishlarga qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur chora-tadbirlar O'zbekistonning inklyuziv va barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Van, Vo, Nguyen va Vo tomonidan olib borilgan tadqiqotda moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik xalqaro miqyosda tahlil qilingan. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolini turli mexanizmlar orqali tushuntiradilar. Ular moliyaviy xizmatlarga kengroq kirish imkoniyati biznes subyektlari va yakka shaxslarga investitsiya qilish, kredit olish, moliyaviy xavf-xatarlarni boshqarish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini berishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, moliyaviy inklyuziya kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi nazariy jihatdan asoslangan. Empirik tahlil natijalari 2000–2017-yillar davomida 100 ta davlat bo'yicha olingan ma'lumotlarga asoslangan. Mualliflar moliyaviy inklyuziyaning yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sishiga ta'sirini o'rganish uchun dinamik panel ma'lumotlar usullaridan foydalanganlar. Natijalarga ko'ra, moliyaviy inklyuziyaning o'sishi iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi tasdiqlangan. Ayniqsa, moliyaviy infratuzilmasi rivojlangan davlatlarda bu ta'sir kuchliroq ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, mualliflar moliyaviy inklyuziya siyosatlarini samaradorligini oshirish uchun moliyaviy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish muhimligini ta'kidlaydilar.¹

Ning, Cherian, Sial, Álvarez-Otero, Comite va Zia-Ud-Din tadqiqotida yashil obligasiyalar (green bonds)ning barqaror yashil moliyalashtirish, energetika samaradorligi investitsiyalari va iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganilgan. Nazariy jihatdan, mualliflar yashil obligasiyalarning yangi moliyaviy instrument sifatida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Yashil obligasiyalar ekologiyani muhofaza qilish va ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilishning samarali vositasi bo'lib, moliyaviy resurslarni ekologik barqaror loyihalarga yo'naltirishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda yashil moliyalashtirishning global iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir qilishini tushuntirish uchun yashil obligasiyalar va ularga bog'liq iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqilgan. Empirik tahlil natijalari 1990–2021-yillar davomidagi 50 ta davlatning ma'lumotlariga asoslangan. Tadqiqot natijalari yashil obligasiyalar bilan moliyalashtiriladigan ekologik loyihalarning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Energiya samaradorligini oshirish uchun sarmoyalarni jalb qilish yashil obligasiyalar orqali iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, empirik tahlillar yashil obligasiyalarning ekologik barqarorlikka va moliyaviy tizimdagi o'zgarishlarga ta'sir qilishda katta potentsialga ega ekanligini ko'rsatadi. Mualliflar kelgusi tadqiqotlar uchun yashil moliyalashtirishning samaradorligi va uning taraqqiyot yo'nalishlari bo'yicha ko'proq amaliyot va nazariy tadqiqotlarni olib borishni taklif qiladilar.²

Emara va El Said tadqiqotida moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik hamda bu jarayonda boshqaruvning roli ko'rib chiqilgan. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini va boshqaruvning samaradorligi moliyaviy xizmatlarga kengroq kirish imkoniyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Moliyaviy inklyuziyaning rivojlanishi, aholining turli qatlamlariga qarz berish, omonatlar va sug'urta xizmatlariga kirish imkonini berib, iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga yordam beradi. Shuningdek, davlat boshqaruvi va moliyaviy institutlarning samarali faoliyati iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Empirik tahlil natijalari MENA mintaqasidagi 2000–2019-yillar davomidagi ma'lumotlarga asoslangan. Mualliflar moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o'sish o'rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlikni aniqlaganlar. Boshqaruvning sifatini baholash uchun davlat boshqaruvi indeksi va moliyaviy inklyuziya indeksi orqali olingan natijalarga ko'ra, yaxshi boshqaruvga ega mamlakatlarda moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri kuchliroq ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, empirik natijalar davlat boshqaruvi me'yorlarini yaxshilash orqali moliyaviy inklyuziyaning kuchaytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mumkinligini ko'rsatadi.³

1 Van, L. T. H., Vo, A. T., Nguyen, N. T., & Vo, D. H. (2021). Financial inclusion and economic growth: An international evidence. *Emerging Markets Finance and Trade*, 57(1), 239-263.

2 Ning, Y., Cherian, J., Sial, M. S., Álvarez-Otero, S., Comite, U., & Zia-Ud-Din, M. (2023). Green bond as a new determinant of sustainable green financing, energy efficiency investment, and economic growth: a global perspective. *Environmental Science and Pollution Research*, 30(22), 61324-61339.

3 Emara, N., & El Said, A. (2021). Financial inclusion and economic growth: The role of governance in selected MENA countries. *International Review of Economics & Finance*, 75, 34-54.



Guru va Yadav tadqiqotida BRICS mamlakatlarida moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik panel ma'lumotlarini tahlil qilish orqali o'rganilgan. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydilar. Moliyaviy bozorlar va moliyaviy institutlarning rivojlanishi iqtisodiy faollikni oshirib, ishlab chiqarish, sarmoyalarni jalb qilish hamda biznes subyektlarining investitsiya qilish imkoniyatini kengaytirishi mumkin. Shuningdek, mualliflar iqtisodiy o'sishga moliyaviy xizmatlarning kirish darajasi, kreditlar, omonatlar va moliyaviy resurslardan foydalanishning samaradorligi salmoqli ta'sir ko'rsatishini ham ko'rsatadilar. Empirik tahlil natijalari BRICS mamlakatlari uchun 1996–2016-yillar davomida olingan ma'lumotlarga asoslangan. Panel ma'lumotlar tahlili natijalari moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Natijalarga ko'ra, moliyaviy chegaralar va infratuzilmaning rivojlanishi mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlagan. Shu bilan birga, empirik tahlillar moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ta'siri har bir BRICS davlatida turlicha bo'lib, mamlakatlardagi moliyaviy infratuzilma darajasi va iqtisodiy sharoitlarga bog'liq ekanligi ko'rsatilgan. Mualliflar kelgusi tadqiqotlar uchun moliyaviy rivojlanishning har bir mamlakatdagi iqtisodiy o'sishga ta'sirini chuqurroq tahlil qilishni taklif etadilar.⁴

Ibrahim va Alagidede tadqiqotida Subsaxara Afrika mamlakatlarida moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganilgan. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Moliyaviy sektorning rivojlanishi, xususan kredit bozorlari, omonatlar va sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatlari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga yordam beradi. Shuningdek, tadqiqotda moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim ahamiyati va iqtisodiy infratuzilmani shakllantirishdagi roli bo'yicha nazariy yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Empirik tahlil natijalari 1980–2015-yillar davomidagi 45 ta Subsaxara Afrika davlatlarining ma'lumotlariga asoslangan. Panel ma'lumotlar tahlili natijalariga ko'ra, moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Xususan, moliyaviy sektorning rivojlanishi, sarmoyalarni jalb qilish va ishlab chiqarishga sarflangan moliyaviy resurslar kambag'allikni kamaytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim omil bo'lgan. Mualliflar natijalarga asoslanib, moliyaviy rivojlanishni yanada kuchaytirish va uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini oshirish uchun Subsaxara Afrika mamlakatlarida moliyaviy infratuzilmani yaxshilash, tartibga solish tizimlarini takomillashtirish va moliyaviy savodxonlikni oshirishni tavsiya qiladilar.⁵

Asteriou va Spanos tadqiqotida Yevroittifoq davlatlarida moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, oxirgi iqtisodiy inqiroz davomida ushbu munosabatning qanday o'zgargani tahlil qilingan. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, moliya sektorining rivoji ishlab chiqarishni rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam berishini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, ular iqtisodiy inqirozlar davrida moliyaviy sektorning o'rni va ta'siri kamayishini, chunki iqtisodiy barqarorsizlik va moliyaviy muammolar iqtisodiy o'sishga manfiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etadilar. Empirik tahlil natijalari Yevroittifoq davlatlari uchun 2000–2017-yillar davomidagi ma'lumotlarga asoslangan. Panel ma'lumotlar tahlili natijalariga ko'ra, moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri asosan iqtisodiy inqirozgacha kuzatilgan, ammo inqiroz davrida ushbu ta'sir sezilarli darajada pasaygan. Mualliflar natijalarga asoslanib, iqtisodiy inqirozlar moliyaviy sektorning ijobiy ta'sirini cheklashi va iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqladilar. Ushbu tadqiqot moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini barqaror saqlash uchun inqirozlarga nisbatan to'g'ri siyosatlarini qabul qilish va moliyaviy sektorni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.⁶

4 Guru, B. K., & Yadav, I. S. (2019). Financial development and economic growth: panel evidence from BRICS. *Journal of Economics, Finance and Administrative Science*, 24(47), 113-126.

5 Ibrahim, M., & Alagidede, P. (2018). Effect of financial development on economic growth in sub-Saharan Africa. *Journal of Policy Modeling*, 40(6), 1104-1125.

6 Asteriou, D., & Spanos, K. (2019). The relationship between financial development and economic growth during the recent crisis: Evidence from the EU. *Finance Research Letters*, 28, 238-245.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, tijorat banklari resurs bazasi barqarorligini tahlil qilishda tijorat banklarining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

2010–2023-yillar davomida aholi jon boshiga asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar hajmi 583,2 ming so'mdan 9778,8 ming so'mgacha oshgan. Bu davrda ko'rsatkich 16 barobarga o'sgan bo'lib, mamlakatda iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining tezlashganini hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalarning sezilarli darajada ortganini ko'rsatadi. Ushbu holat iqtisodiy faoliyatning ko'paygani va investitsiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sir qilganidan dalolat beradi.

2010–2016-yillar oralig'i: 2010–2016-yillar davomida aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi nisbatan barqaror sur'atlar bilan o'sib, har yili o'rtacha 15–20 % atrofida oshgan. Bu davrda iqtisodiyotning asosan qishloq xo'jaligi, energetika va transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar ustunlik qilgan. Shu bilan birga, 2016-yilda investitsiyalar hajmining 1608,6 ming so'mga yetishi mamlakatda iqtisodiy islohotlarning boshlangani haqida signal bergan.

2017–2020-yillar oralig'i: ushbu davrda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada o'sgan. Ayniqsa, 2018-yilda 3769,6 ming so'mlik ko'rsatkich qayd etilib, bu 2017-yilga nisbatan 69,2 % o'sishni anglatgan. Bu yillarda yirik sanoat va infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi investitsiyalarning aholi farovonligiga bevosita ta'sirini kuchaytirgan. 2020-yilda esa investitsiyalar hajmi 6140,3 ming so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 5,2 % bilan nisbatan past bo'lgan. Bu holat COVID-19 pandemiyasi ta'sirida iqtisodiy faollikning vaqtincha susaygani bilan izohlanadi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistaonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi⁷.

2021–2023-yillar oralig'i: so'nggi yillarda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o'sishda davom etgan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 9778,8 ming so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 30,9 % o'sish qayd etilgan. Bu holat mamlakatda yirik infratuzilma va sanoat loyihalarining davom ettirilgani, shuningdek, aholini qamrab olgan investitsiya dasturlarining kengaygani bilan bog'liq. Ushbu yillardagi yuqori o'sish sur'atlari O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi.

7 O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



2016–2023-yillar oralig‘i: 2016-yildan 2023-yilgacha aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1608,6 ming so‘mdan 9778,8 ming so‘mgacha o‘sgan, bu esa 507,9 foizlik oshishni anglatadi. Bu yillar davomida O‘zbekistonda iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, infratuzilma loyihalarining kengayishi va xususiy sektor faoliyatining kuchayishi natijasida investitsiyalar sezilarli darajada ortgan. Bu o‘zgarishlar investitsiya muhiti va iqtisodiy islohotlar samaradorligidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining viloyatlar kesimida o‘zgarish tendensiyasi (ming so‘mda)⁸.

		2010	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023 yilda 2016 yilga nisbatan o‘zgarishi
	O‘zbekiston Respublikasi	583,2	1608,6	2227,8	3769,6	5834,6	6140,3	6861	7468,6	9778,8	507,9%
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	302,6	2094,1	1528,8	3641,1	4644,4	3710	4189,2	5225,5	6514,1	211,1%
2	Andijon viloyati	282,3	745,3	999,6	1550,3	2406	3047,2	3470,1	4361,1	5549,8	644,6%
3	Buxoro viloyati	1321,5	3237,6	6254,2	5112,4	5429,3	6295	10462,9	10855,5	15309,4	372,9%
4	Jizzax viloyati	391,5	1125,1	1361,9	2693,9	5778,9	8984,7	6470,8	7107,9	10037,4	792,1%
5	Qashqadaryo viloyati	678,5	2389,2	3583,4	5193,4	7534,6	6214,7	5148,2	4647,7	6002,6	151,2%
6	Navoiy viloyati	2031	3168,2	4185,5	10892,1	17855,2	15604,2	14672,4	17189,8	24778,1	682,1%
7	Namangan viloyati	290	1074,8	1340,3	2992,5	4344,1	4229,2	4477,8	4984,4	6339,5	489,8%
8	Samarqand viloyati	344	1001,6	1189,5	1878,3	2674,9	3746	3920,7	4642,5	6176,9	516,7%
9	Surxondaryo viloyati	312,7	879,1	1427,1	2848,3	4552,8	3792,2	4438,7	4169,4	6442,3	632,8%
10	Sirdaryo viloyati	564,3	1660,3	2011,1	3280,2	7002,9	8425,4	9257,1	13919,1	17532,1	956,0%
11	Toshkent viloyati	618,2	1507,5	2087,2	3898,4	6970	7169	9644,5	12056,8	15784,2	947,0%
12	Farg‘ona viloyati	300,1	747,8	822,4	1516,8	2336,2	2916	3272,3	3917,2	4965,3	564,0%
13	Xorazm viloyati	264,6	885,7	1215	1655,6	2718,4	2868,2	4344,3	4517,9	5901,5	566,3%
14	Toshkent shahri	1472,4	3848,1	5552,8	10627,8	16710,5	19065,6	20619,8	19539,4	23725,7	516,6%

2016-yilda jon boshiga Qoraqalpog‘iston Respublikasida investitsiyalar hajmi 2094,1 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 6514,1 ming so‘mga yetib, 211,1 foizga oshdi. Bu holat mintaqada sanoatni rivojlantirish, energetika infratuzilmasi va turizmni kengaytirishga qaratilgan loyihalar bilan izohlanadi. Qoraqalpog‘istonda uzoq muddatli barqaror o‘shish sur‘atlari kuzatilmoqda.

Andijon viloyatida investitsiyalar 2016–2023-yillar davomida 745,3 ming so‘mdan 5549,8 ming so‘mgacha o‘sdı (644,6 foiz). Viloyatda yengil sanoat va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, shuningdek, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash choralari ushbu o‘shishga sezilarli hissa qo‘shdi.

Buxoro viloyatida 2016-yilda 3237,6 ming so‘m bo‘lgan investitsiyalar 2023-yilda 15309,4 ming so‘mga yetdi, ya‘ni 372,9 foizga oshdi. Bu yillarda Buxoroda neft-gaz sanoati, transport infratuzilmasi va turizm sohalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Jizzax viloyatida investitsiyalar 2016–2023-yillar davomida 1125,1 ming so‘mdan 10037,4 ming so‘mgacha o‘sib, 792,1 foizga oshdi. Jizzax erkin iqtisodiy zonasi orqali sanoat va logistika sohalariga berilgan ustuvor e‘tibor o‘z samarasini bermokda.

8 O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Qashqadaryo viloyatida investitsiyalar hajmi 2016–2023-yillar davomida 2389,2 ming soʻmdan 6002,6 ming soʻmgacha oshib, 151,2 foiz oʻsishni tashkil etdi. Hududda gaz va neft qazib olish sohalarida amalga oshirilgan loyihalar muhim ahamiyat kasb etdi.

Navoiy viloyatida 2016-yilda jon boshiga investitsiyalar hajmi 3168,2 ming soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2023-yilda bu koʻrsatkich 24778,1 ming soʻmga yetib, 682,1 foizga oshdi. Viloyatda togʻ-kon sanoati va energetika infratuzilmasi yoʻnalishidagi yirik loyihalar amalda oʻz samarasini berdi.

Namangan viloyatida 2016-yilda 1074,8 ming soʻm boʻlgan investitsiyalar 2023-yilda 6339,5 ming soʻmga yetib, 489,8 foizga oshdi. Viloyatda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirish boʻyicha amalga oshirilgan saʼy-harakatlar mazkur natijaga erishishda muhim rol oʻynadi.


Samarqand viloyatida investitsiyalar hajmi 2016–2023-yillar davomida 1001,6 ming soʻmdan 6176,9 ming soʻmgacha oshib, 516,7 foizga yetdi. Bu viloyatda turizmni rivojlantirish boʻyicha amalga oshirilgan strategik loyihalar iqtisodiy oʻsishga turtki boʻldi.

Sirdaryo viloyatida jon boshiga investitsiyalar 2016–2023-yillar davomida 1660,3 ming soʻmdan 17532,1 ming soʻmgacha oshib, 956,0 foizga oʻsdi. Hududda elektr energiyasi ishlab chiqarish va qishloq xoʻjaligi sohalarida amalga oshirilgan yirik loyihalar muhim ahamiyat kasb etdi.

Toshkent viloyatida 2016-yilda jon boshiga investitsiyalar hajmi 1507,5 ming soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2023-yilda bu koʻrsatkich 15784,2 ming soʻmga yetib, 947,0 foizga oshdi. Hududda sanoat va logistika markazlarining tashkil etilishi investitsiyalarni jalb etishda muhim oʻrin tutdi.

Toshkent shahrida 2016-yilda 3848,1 ming soʻm boʻlgan investitsiyalar 2023-yilda 23725,7 ming soʻmga yetib, 516,6 foizga oʻsdi. Poytaxtda zamonaviy infratuzilma va biznes markazlari qurilishi, shuningdek, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish boʻyicha olib borilgan kompleks ishlar investitsiyalar hajmining sezilarli darajada ortishiga sabab boʻldi.

Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi 2015–2023-yillar davomida sezilarli oʻzgarishlarga uchradi. 2015-yilda bu koʻrsatkich 20,2 foizni tashkil etgan boʻlsa, iqtisodiyotdagi investitsiyalar darajasi moʻtadil boʻlgan. 2016-yilda esa bu ulush biroz pasayib, 20,1 foizga tushgan. Biroq 2017-yildan boshlab koʻrsatkich sezilarli darajada oshib, 22,7 foizga yetgan. Bu holat iqtisodiy islohotlar va infratuzilma loyihalarining faollashgani bilan izohlanadi. Ayniqsa, 2018-yilda koʻrsatkich 29,1 foizga yetib, investitsiyalar hajmining iqtisodiyotning umumiy hajmiga nisbatan jiddiy oʻsishini aks ettirgan (1-rasm).



1-rasm. Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi, foizda⁹.

9 Oʻzbekiston Respublikasi Statistika qoʻmitasining rasmiy maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi



2019-yilda ulush yanada yuqorilab, 36,8 foizni tashkil etdi. Bu yillar davomida qator strategik loyihalar, jumladan, sanoat va transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish natijasi edi. Keyingi yillarda pandemiya ta'siri tufayli 2020-yilda ko'rsatkich biroz pasayib, 34,7 foizni tashkil etdi va 2021-yilda yana kamayib, 32,4 foizga yetdi. 2022-yilda ulush 29,7 foizgacha tushdi, bu esa iqtisodiy muvozanatni saqlash va ichki ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan strategiyalar bilan bog'liq edi. 2023-yilda esa ko'rsatkich 33,4 foizgacha ko'tarilib, iqtisodiyotdagi barqaror o'sish va sarmoya faolligining ortganini ifodaladi. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan investitsion siyosatning samaradorligini namoyish etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Asosiy vositalarga qilingan investitsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, samaradorlikni oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi. Asosiy vositalarga investitsiyalar deganda zavodlar, uskunalar, infratuzilma va boshqa moddiy aktivlarga yo'naltirilgan mablag'lar tushuniladi. Bunday investitsiyalar natijasida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilib, mahsulot sifati oshadi, tannarxi pasayadi va natijada iqtisodiy o'sish tezlashadi. Shuningdek, yangi korxonalar tashkil etilishi natijasida ish o'rinlari yaratiladi va aholi bandligi ortadi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar mamlakatning sanoat salohiyatini oshirish bilan birga, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Uskunalar va texnologiyalarga sarflangan mablag'lar ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali qilish bilan birga, innovatsion yondashuvlarni ham rivojlantiradi. Masalan, energetika, transport va axborot texnologiyalari sohalariga qilingan investitsiyalar logistika xarajatlarini kamaytirib, boshqa tarmoqlarning ham rivojlanishiga turtki beradi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali ilg'or texnologiyalar va menejment tajribasidan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Investitsiyalar natijasida ishlab chiqarish hajmining ortishi yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishiga bevosita ta'sir qiladi. Ayniqsa, sanoat va infratuzilma rivojlanishi xizmatlar sohasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yangi zavod va fabrikalar qurilishi natijasida qurilish, logistika, ta'minot va boshqa sohalarda talab oshadi. Bu esa iqtisodiyotning turli segmentlari o'rtasidagi sinergetik ta'sirni kuchaytiradi. Shu bilan birga, korxonalar tomonidan innovatsion texnologiyalarga sarmoya kiritilishi iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2016–2023-yillar davomida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1608,6 ming so'mdan 9778,8 ming so'mgacha o'sdi. Bu esa 507,9 foizga oshishni anglatadi. Ushbu davrda O'zbekistonda iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, infratuzilma loyihalarining kengayishi va xususiy sektor faoliyatining kuchayishi natijasida investitsiyalar sezilarli darajada ortdi. Bu o'zgarishlar investitsiya muhiti va iqtisodiy islohotlar samaradorligidan dalolat beradi.


Shunday qilib, asosiy vositalarga qilingan investitsiyalar iqtisodiy o'sishning katalizatori bo'lib, nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishiga, balki texnologik yangilanish, mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining ko'tarilishiga ham xizmat qiladi. Mamlakatlar iqtisodiy siyosatida investitsion muhitni yaxshilash, xususiy sektor va davlat hamkorligini kuchaytirish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali bu jarayonni tezlashtirish mumkin. Shu sababli, asosiy kapitalga investitsiyalarni oshirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Van, L. T. H., Vo, A. T., Nguyen, N. T., & Vo, D. H. (2021). Financial inclusion and economic growth: An international evidence. *Emerging Markets Finance and Trade*, 57(1), 239-263.
2. Ning, Y., Cherian, J., Sial, M. S., Álvarez-Otero, S., Comite, U., & Zia-Ud-Din, M. (2023). Green bond as a new determinant of sustainable green financing, energy efficiency investment, and economic growth: a global perspective. *Environmental Science and Pollution Research*, 30(22), 61324-61339.
3. Ashraf, B. N., & Shen, Y. (2019). Economic policy uncertainty and banks' loan pricing. *Journal of Financial Stability*, 44, 100695.



4. Emara, N., & El Said, A. (2021). Financial inclusion and economic growth: The role of governance in selected MENA countries. *International Review of Economics & Finance*, 75, 34-54.
5. Batrancea, L., Rathnaswamy, M. K., & Batrancea, I. (2022). A panel data analysis on determinants of economic growth in seven non-BCBS Countries. *Journal of the Knowledge Economy*, 13(2), 1651-1665.
6. Zidan, K. (2019). The impact of banking sector on economic growth: Empirical analysis from Palestinian economy. *International Journal of Economics and Financial Issues*, 9(1), 1-6.
7. Ozili, P. K., Ademiju, A., & Rachid, S. (2022). Impact of financial inclusion on economic growth: review of existing literature and directions for future research. *International Journal of Social Economics*, 50(8), 1105-1122.
8. Ibrahim, M., & Alagidede, P. (2018). Effect of financial development on economic growth in sub-Saharan Africa. *Journal of Policy Modeling*, 40(6), 1104-1125.
9. Chen, Y., Kumara, E. K., & Sivakumar, V. (2021). Investigation of finance industry on risk awareness model and digital economic growth. *Annals of Operations Research*, 1-22.
10. Ratnawati, K. (2020). The impact of financial inclusion on economic growth, poverty, income inequality, and financial stability in Asia. *The Journal of Asian Finance, Economics and Business*, 7(10), 73-85.
11. Guru, B. K., & Yadav, I. S. (2019). Financial development and economic growth: panel evidence from BRICS. *Journal of Economics, Finance and Administrative Science*, 24(47), 113-126.
12. Dansana, D., Patro, S. G. K., Mishra, B. K., Prasad, V., Razak, A., & Wodajo, A. W. (2024). Analyzing the impact of loan features on bank loan prediction using Random Forest algorithm. *Engineering Reports*, 6(2), e12707.
13. Asteriou, D., & Spanos, K. (2019). The relationship between financial development and economic growth during the recent crisis: Evidence from the EU. *Finance Research Letters*, 28, 238-245.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100